
Fuqarolar o'z huquq va manfaatlarini buzayotgan mansabdor shaxslar qarorlari ustidan ma'muriy sudga murojaat qilganda davlat boji to'lamaydi Prezident tomonidan imzolangan Qonun bilan "Davlat boji to'g'risida"gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Unga ko'ra, jismoniy shaxslar o'z huquqlarini va qonuniy manfaatlarini buzayotgan mahalliy davlat hokimiyati organlarining, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lган boshqa organlarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan **sudga** murojaat qilganda **davlat bojini** to'lashdan ozod qilinadi.

Mazkur shaxslarning talablarini qanoatlantirish to'liq yoki qisman rad etilgan taqdirda, davlat boji shu shaxslardan talablarning qanoatlantirilishi rad etilgan miqdoriga mutanosib ravishda undiriladi.

Bunday holatlarda fuqarolardan berilgan arizalar bo'yicha undiriladigan davlat boji **BHMning 70 foizi** etib belgilandi (*ilgari BHMning 1 baravari miqdorida edi*).

Shuhrat Mirzakirov

Jinoyat ishlari bo'yicha O'zbekiston tuman sudining raisi

2024-02-01 15:04:58